

INSON HUQUQLARI VA ULARNING ERKINLIKLARI

Allambergenov Saparbay Dauletbayevich

O'zbekiston Respublikasi Ichki Ishlar Vazirligi Malaka oshirish instituti dotsenti,
yuridik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14560388>

Annotatsiya. Ushbu maqolada mustaqillik va inson huquqlari birligi, ularning huquq va erkinliklarini tadbiq qilishda alohida shaxslarning huquq va erkinliklarini buzishga yo'l qo'ymaslik, shaxs huquqiy maqomining konstitutsiyaviy prinsiplari, xalqaro huquqning umume'tirof etilgan qoidalarida huquq va erkinliklarning ifodalanishi tahlillari keltirilgan.

Kalit so'zlar: shaxs, davlat, inson huquqlari, konstitutsiya, fuqarolik jamiyati, xalqaro standart.

HUMAN RIGHTS AND THEIR FREEDOMS

Abstract. This article presents an analysis of the independence and unity of human rights, the non-violation of the rights and freedoms of individuals in the implementation of their rights and freedoms, the constitutional principles of the legal status of the individual, the expression of rights and freedoms in the generally recognized rules of international law.

Keywords: individual, state, human rights, constitution, civil society, international standard.

ПРАВА ЧЕЛОВЕКА И ИХ СВОБОДЫ

Аннотация. В статье представлен анализ единства независимости и прав человека, предотвращения нарушения прав и свобод личности при осуществлении ею прав и свобод, конституционных принципов правового положения личности, выражения прав и свободы в общепризнанных положениях международного права.

Ключевые слова: личность, государство, права человека, конституция, гражданское общество, международный стандарт.

Inson huquqlari deganda, davlat yoki mansabdor shaxslar tomonidan muayyan shaxsning yoki shaxslarning qonuniy huquq va erkinliklariga rioya etilishi va buni ta'minlash bilan bog'liq bolgan davlat va individ o'rtasidagi o'zaro huquqiy munosabatlar tushuniladi. Bunday munosabatlarning buzilishi, ya'ni inson huquqlariga daxldor bolgan mavjud qonunlarga rioya qilmaslik, fuqarolarning o'z huquqlarini amalga oshirishlariga mansabdor shaxslar tomonidan to'sqinlik qilinishi, yoki bolmasa, davlat tomonidan o'zining xalqaro majburiyatlarining bajarilmasligi, xalqaro standartlarning milliy qonunchilikka yetarli darajada implementatsiya qilinmasligi va ularga amaliyotda yetarli darajada rioya etilmasligi kabi holatlar mamlakatdagi inson huquqlarining buzilishi holatlariga olib keladi.

Sobiq shoʻrolar tuzumi davrida bu organlarga faqat jazolovchi organ sifatida qaralgan boʻlib, ulaming faoliyati orqali minglab fuqarolarimiz nohaq qamalib, repressiyaga duchor boʻlishgan edi.

Masalan, mustabid davr sudlari faqat jazolovchi organ sifatida namoyon bolib, mustaqil holatda faoliyat yurita olmaganliklari va faqat siyosiy partiya hamda yuqori lavozimdagi amaldorlar tazyiqi ostidagina ish olib borganliklari, buning oqibatida inson huquqlari poymol boʻlib kelganligiga misollar juda ham koʻp.

Hatto, nosudlov organlari tomonidan ham insonlarga jazo berilish holatlari yuz bergan.

Buning yaqqol isboti sifatida 1930-1950-yillarni olib qarasak, sobiq SSSR davrida nosudlov organlari tomonidan 3778234 shaxs asossiz jinoiy javobgarlikka tortilib, shundan, 786098 nafari hatto olim jazosiga mahkum etilgan.

Shuningdek, Oʻzbekiston SSRning sobiq SSSR prokuraturasi tergovchilari, Gdlyan va Ivanovlar gumhining qonunsizlik va oʻzboshimchaliklariga yetarlicha qarshilik koʻrsata olmaganligi sabab, 1983-89-yillarda “Paxta ishi” boʻyicha 4,5 ming kishi javobgarlikka tortilgan va keyinchalik, Oʻzbekiston Respublikasi Oliy sudi tomonidan 3,5 ming kishi oqlangan.

Yurtboshimiz taʼkidlaganidek, “bizga zarba bolib tushgan eng ogʻir tanglik iqtisodiy emas, balki maʼnaviy tanglikdir. Asrlar mobaynida qaror topgan axloqiy-maʼnaviy qadriyatlarini gʻoyaviy qarashlarga qurbon qilish oqibatlarini bartaraf etish iqtisodiyotni tartibga keltirishdan koʻra ancha mashaqqatli boʻladi. Axir, yaqindagina emasmidi, kommunist, ayniqsa, u yuqoriroq lavozimda boʻlsa, oʻz yaqin kishilari bilan oxirgi marta vidolashish uchun qabristonga ham borolmasdi. Dafn marosimida ishtirok etish eng kata ayb sanalib, bunday odamni partiyadan oʻchirib, ishdan boʻshatishardi. Vijdon azobidan sal boʻlsa-da, qutulish, ayni paytda yillar boʻyi mehnat qilib erishgan imtiyozlardan mahrum boim aslik uchun odamlar qarindosh-urugʻlari, hatto, ota-onasi vafot etganda kasalxonaga yotib olishar yoki “shoshilinch komandirovka”ga ketib qolishar edi. Ana shundan keyin ham biz, odamlar hech nimaga ishonmay qoʻyishgan, ularda hech qanday muqaddas narsa yoʻq, deb aytishga qanday tilimiz borar edi?”.

Mustaqillikning birinchi kunlaridanoq, mamlakatimizda inson manfaatlariga, uning huquq va asosiy erkinliklariga oliy qadriyat sifatida yondashila boshlandi. Bunga, 1991-yilning 30-sentabrida Oʻzbekistonning Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasiga aʼzo boʻlishining oʻziyoq yaqqol misol boʻla oladi. Chunki, mustaqilligining birinchi kunlaridanoq erkin bozor iqtisodiyotiga asoslangan demokratik, huquqiy davlat qurishni oʻz oldiga maqsad qilib qoʻygan Oʻzbekiston bu yoʻlda jahon hamjamiyati tomonidan eʼtirof etib kelingan umuminsoniy qadriyatlarining ustuvorligini eʼtirof etgan edi. Bunday maqsadni eʼlon qilgandan soʻng ikkinchi qadam– respublikamizning 1992-yil 8-dekabrda oʻz Konstitutsiyasini eʼlon qilishi boʻldi.

Konstitutsiyada Deklaratsiyaning barcha qoidalari mustahkamlab qo'yilishi O'zbekistonning demokratik, huquqiy davlat qurishga bo'lgan maqsadining konstitutsiyaviy poydevori bo'ldi.

Mamlakat Konstitutsiyasida hokimiyat vakolatlarining bo'linish tamoyili asosida qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatining vakolatlari aniq belgilab olindi.

O'zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishishi, ko'p sohalarda bo'lgani kabi, O'zbekistonda yuridik ta'limning ko'plab yangi tarmoqlari vujudga kelishiga hamda ulaming rivojlanishiga ham imkoniyatlar yaratib berdi. Yangi ijtimoiy munosabatlar parlament huquqi, bank huquqi, soliq huquqi, sug'urta huquqi, inson huquqlari kabi ko'plab yangi huquqiy fanlaming shakllanishiga olib keldi.

REFERENCES

1. Rustamboyev M, Nikiforova Ye. Huquqni muhofaza qilish organlari. - T.: A dolat, 2006.
2. Ўзбекистон: Миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура.—Т.:Ўзбекистон
3. Юксак маънавият-енгилмас куч. —Т.: “Маънавият”
4. Имомназаров М. Маънавиятимизнинг такомил босқичлари. —Т.: Шарқ